

**PSIXOLOGIK TASVIR VA BADIY USLUB UYG‘UNLIGI
(LUQMON BO’RIXONNING “IMOM MOTURIDIY” ROMANI MISOLIDA)**

Bobojanov Alisher

Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanidagi psixologik tasvir va badiiy uslub uyg‘unligi tahlil qilinadi. Asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning mutanosibligi, shaxsiy va ijtimoiy ziddiyatlar orqali obrazlar ruhiyatining yoritilishi o‘rganiladi. Imom Moturidiy kabi tarixiy shaxsning ichki dunyosini tasvirlashda muallif tomonidan qo‘llanilgan estetik uslub, ruhiy kechinmalar va dramatizmni aks ettiruvchi poetik vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asardagi psixologik portret yaratish usullari, monolog va dialog vositalari, shuningdek, badiiy peyzajlarning qahramonlar ruhiyatiga ta’siri ochib beriladi. Ushbu maqola o‘zbek tarixiy romanichiligidagi psixologizm va badiiy estetik tafakkur o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik tasvir, badiiy uslub, tarixiy roman, ruhiy kechinma, Luqmon Bo‘rixon, Imom Moturidiy.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlar doimo o‘ziga xos o‘rin egallagan. Ular nafaqat o‘tmishni badiiy tasvirlashga, balki tarixiy shaxslarning ichki dunyosini ochib berishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani o‘zbek tarixiy romanichiligi rivojida alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda tarixiy shaxsning hayoti va faoliyati nafaqat tarixiy haqiqat asosida, balki badiiy-estetik yondashuv orqali ham talqin etilgan. Imom Moturidiy siymosi asarda ulkan ma’naviy meros sohibi sifatida tasvirlanar ekan, uning ruhiy kechinmalarini, ichki ziddiyatlari va qarashlari muallif tomonidan teran psixologik tahlil asosida ochib berilgan. Bugungi kunda o‘zbek tarixiy romanichiligidagi badiiy ifoda vositalari, xususan, psixologizm va estetik uyg‘unlikning tadqiqi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bunday asarlar milliy o‘zlikni anglash, tarixni qayta idrok etish va ma’naviy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, Luqmon Bo‘rixon qalamiga mansub “Imom Moturidiy” romanining badiiy xususiyatlarini tadqiq etish, undagi psixologik tasvir vositalarini o‘rganish hamda badiiy uslub uyg‘unligini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik uchun dolzarb ilmiy vazifadir.

Adabiyotlar tahlili. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanini ilmiy o‘rganish jarayonida tarixiy roman poetikasi va undagi psixologizm masalalari bo‘yicha qator nazariy manbalarga tayaniladi. Avvalo, o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanning nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda tarixiylik,

tarixiy shaxs talqini, ruhiyat va badiiy to‘qimaning o‘zaro uyg‘unligi kabi masalalar keng tadqiq qilingan. Aristotelning “Poetika” asari hamda Volter Skottning tarixiy romanlar bo‘yicha olib borgan ijodiy izlanishlari bu boradagi asosiy manbalar sifatida e’tirof etiladi. O‘zbek adabiyotshunosligida Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov va Dilmurod Quronov kabi olimlarning roman janri, xususan, tarixiy asarlar poetikasi haqidagi tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asosan tarixiy shaxslar va voqealarning badiiy talqini, psixologik portretlarni yaratishda foydalanilgan vositalar, syujet va kompozitsiyaning badiiy mazmunni shakllantirishdagi o‘rni haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Izzat Sultonning qahramon ruhiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlari Luqmon Bo‘rixon asarini chuqurroq anglash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, N.Karimov va B.Nazaroylarning tadqiqotlari ham tarixiy romanlarning tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligini qanday shakllantirishini o‘rganishda katta yordam beradi. Shu bilan birgallikda, Imom Moturidiy kabi tarixiy shaxslar talqiniga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda xorij va mahalliy tarixchi hamda islomshunos olimlar tomonidan yozilgan ilmiy maqola va monografiyalar qimmatli dalil va xulosalarni taqdim etadi. Shu bilan birga, tarixiy obrazlar tasviri va psixologik portretlarni yaratishda, tarixiy sharoitning qahramon ruhiyatiga ta’sirini tahlil qilishda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi psixologizm nazariyasi bo‘yicha qilingan izlanishlarga ham tayaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanidagi psixologik tasvir va badiiy uslub uyg‘unligi ilmiy asosda tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishda qiyosiy-tarixiy, biografik, psixologik, struktural va interpretatsion metodlardan keng foydalanildi.

Natija va muhokamalar. O‘zbek adabiyotida tarixiy romanchilik alohida o‘rin egallab, nafaqat tarixiy voqealar va shaxslarni badiiy tasvirlashga, balki ularning ruhiy kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. “Imom Moturidiy” romani tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi, shaxsiy va ijtimoiy ziddiyatlarni yoritishda qo‘llanilgan psixologik tasvir vositalari bilan ajralib turadi.

Roman poetikasida tarixiy shaxs sifatida Imom Moturidiy siyoshi badiiy-estetik yondashuv asosida yoritilgan. Muallif tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning mutanosibligini saqlagan holda, Imom Moturidiyning diniy, ilmiy va falsafiy qarashlarini qahramon ruhiyati bilan uyg‘unlashtirgan. Asarda tarixiy faktlar asosida yaratilgan voqealar zanjiri qahramonning ichki dunyosi, hissiy holatlari va qarorlariga uzviy bog‘langan. Bu esa tarixiy romanda shaxsiy kechinmalar orqali tarixiy davr muhitini ifodalash imkonini beradi.

Romanda psixologik tasvir vositalari keng qo‘llanilgan. Xususan, monolog va dialoglar qahramonning ichki dunyosini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Monologlar qahramonning iymon,adolat, ijtimoiy mas‘uliyat va taqdirga munosabatini ochib bersa,

dialoglar qahramonlar o‘rtasidagi fikrlar almashinushi orqali ruhiy va intellektual ziddiyatlarni yoritadi. Masalan, Imom Moturidiy va boshqa tarixiy shaxslar o‘rtasidagi muloqotlar qahramonning dunyoqarashini chuqurlashtirish bilan birga, asarning badiiy mazmunini boyitadi. Dialoglarda qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyat va uyg‘unlik tasviri tarixiy va falsafiy masalalarining muhokamasiga olib keladi. Peyzaj tasvirlari esa psixologik tasvirning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lgan. Romanda peyzajlar qahramonning hissiy holatini ifodalashda va voqelikning ramziy mazmunini ochishda xizmat qiladi. Masalan, Imom Moturidiyning fikrlari va ruhiy iztiroblari ko‘pincha tabiat manzaralari orqali aks ettiriladi. Tog‘lar, daryolar, quyosh chiqishi yoki botishi kabi tasvirlar qahramonning ichki dunyosini va tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini aks ettirishga yordam beradi. Bu elementlar nafaqat estetik ahamiyatga ega, balki asarning umumiy mazmunini boyitadi.

Romadagi konfliktlar va dramatik voqealar qahramon ruhiyati va ichki kurashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Imom Moturidiy siymosi orqali tarixiy shaxsning davr ijtimoiy-siyosiy sharoitlariga javobi va ichki qarorlari ochib berilgan. Konfliktlar orqali qahramonning ma‘naviy yetukligi, iymon mustahkamligi va qarashlarining shakllanish jarayoni tasvirlangan. Bu esa o‘quvchiga tarixiy davr ruhini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birgallikda, romanda badiiy to‘qima va tarixiy haqiqat uyg‘unligi ustalik bilan amalga oshirilgan. Tarixiy shaxslarning real hayoti va faoliyatini qamrab oluvchi voqealar badiiy elementlar bilan boyitilib, asarga chuqur psixologik va estetik mazmun baxsh etilgan. Muallif Imom Moturidiy shaxsini nafaqat diniy va ilmiy yutuqlari bilan, balki insoniylik va adolatga bo‘lgan munosabati orqali gavdalantiradi. Shu bilan birga, tarixiy voqealar va qahramonlar hayotiy ziddiyatlar fonida talqin qilingan. Romanda Imom Moturidiyning shaxsiy kechinmalarini yoritishda tush tasvirlari va ramziy elementlardan ham samarali foydalilanigan. Tushlar qahramonning ichki kurashlarini, o‘zligini anglash jarayonini va kelajak haqidagi mulohazalarini aks ettiradi. Bunday poetik elementlar asarning badiiy qiymatini oshirib, qahramon ruhiyatini yanada teranroq ochib beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Imom Moturidiy” romani o‘zbek tarixiy romanchiligidagi psixologizm va badiiy ifoda uyg‘unligini namoyon etadi. Bu roman nafaqat tarixiy shaxsning badiiy obrazini yaratishdagi mahoratni, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy voqealarga yangi nuqtai nazardan yondashish imkonini ham ochib beradi. Shuningdek, asarda qo‘llanilgan monolog, dialog, peyzaj va tush tasvirlarining badiiy funktsiyasi qahramon ruhiyatining turli qirralarini ochishda muhim o‘rin tutadi. Roman muallifining bu vositalardan samarali foydalanishi asar mazmunini boyitib, qahramonlarni hayotiy va ta’sirchan qilib ko‘rsatishga imkon yaratadi. Shu sababli, “Imom Moturidiy” romani tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilishda yuqori darajada poetik

ifoda imkoniyatlariga ega bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ойбек. Адабиёт қоидалари // Қизил Ўзбекистон, 1926 йил, 8 декабрь; Болтабоев Ҳ. Қатағон қилинганди илм. – Т.: Хазина, 1996.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари (Муаллиф. Жанр. Хронотоп). – Т.:Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015. 18
3. Раҳимов А. Роман санъати. Фарғона: Фарғона, 2015. – Б.12-13.
4. Санжар Содик. Тарихий-полифоник роман. / Ўзбек адабий танқиди: антология / тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011. – Б. 220.
5. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 186-187.
6. Али, Мухаммад. Сарбадорлар: Икки китобдан иборат тарихий роман. Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. 1 китоб 256 б. , 2 китоб 240 б.
7. Раҳмонов Н. Тарихдан озиқланиб. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. – Б.15.
8. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф. жанр, хронотоп. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 103.
9. Каттабеков А. Тарихий роман хусусида баҳслар / Ўзбек адабий танқиди: антология / Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011. – Б.290.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi,2004. – B. 39
11. Ziyodov Sh. Imom Moturidiy. “O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2022. B-25.